

BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY

Mardonova Lobar Umaraliyevna

TerDPI dotsenti

Xonimova Maryam

TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. “Bugun o‘zbek nasri xazinasida iste’dodli yozuvchi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” nomli yangi romani bilan boyidi. Aslida, “emas oson bu maydon ichra turmoq...”. O‘zbek adabiyoti tarixida hazrat Alisher Navoiy obrazi bor, teatr va kino talqinlari ham. Ammo ma’naviy zaruratga ko‘ra, adib Alisher Navoiy siymosiga qayta murojaat qildi”. Adib o‘z asarlarida hayot voqeliklarini haqqoniy tarzda yuksak mahorat bilan kitobxonga tasvirlab beradi. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam Isajon Sulton haqida yozadi: “ “Uning ijod yo‘li anchagina o‘ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo‘jazgina kitobchasi – “Oydinbuloq” bilan ko‘zga tashlanib, adabiy davralarni o‘ziga qaratib olgach, hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho‘ng‘ib ketgan bo‘yi, 2010-yilda qator hikoyalar va romanlar bilan u ummondan bosh ko‘targan ijodkordir”[6]. Haqiqatdan ham bir qancha tanaffuslardan so‘ng adib bor mahorati bilan ishga kirishdi. Roman, qissa va hikoya janrlarida qalam tebratdi. Uning “Boqiy darbadar”, “Ozod” singari romanlari qo‘lma qo‘l o‘qildi va ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘ldi. Xuddi shunday asarlardan yana biri “Alisher Navoiy” romanidir.

Bugungi kun texnikasi shu darajada rivojlanmoqdagi. Shunday bo‘lsada bazi insonlar borki, ular nafaqat o‘zi yashagan davr, balki undan keyingi zamonlar uchun ham yo‘lboshchi, etakchi bo‘lib qolaverishadi. Tarixda bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Hazrat Alisher Navoiy mana shunday benazir mutafakkirlardan biri ekanligiga shubha yo‘q. Bu ijod insoniyatga mangu hamroh, haq va haqiqatni tanishga ko‘mak beradigan tafakkur bulog‘idir. Mamlakatimiz va xorijda ham tanilgan yozuvchi Isajon Sultonning «Alisher Navoiy» romani buyuk so‘z san’ati, ulug‘ mutafakkir bobomizning hayoti, ijodi bilan yanada yaqindan tanishishga imkon, hazratning ma’naviy-ruhiy, islomiy-irfoniy, e’tiqodiy olamini anglash sari qo‘yilgan yangi bir shaxdam qadamdir. «Insonga yaralishidanoq o‘zini tanitdi. Biroq yorug‘ olamga kelganida u bilimni unuttirib, javhariga ilmga chanqoqlikni joylab qo‘ydi. U shunday ilmki, mangu saodatning kalitidir». Kitobda ana shunday hikmatnamo jumlar borki, ular o‘quvchini ulug‘ shoirimizning ijtimoiy-siyosiy, islomiy-tasavvufiy qarashlarini anglash, daho san’atkorning bolalik, o‘smirlik, o‘rta yosh va keksalik davridagi o‘y-kechinma va tafakkuri bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi:

«Johil faqat eb-ichishni va o‘z oromini o‘ylaydigan kimsadir. Etuk kishi esa yaratuvchi, bunyod qiluvchidir! Siz ayrim o‘simliklarni ko‘rgansiz, o‘sib-ungay, ammo mevasi er tubida bo‘lgay. Sizning hayot daraxtingiz ham shunga o‘xshaydi, ba’zi mevalarini bu olamda ko‘rsangiz, yana allaqanchasini mangulik diyorida ko‘rasiz. Ularning bir qanchasi aytgan so‘zlaringiz tufayli bunyodga keladi». Romanda so‘zning ilohiyligi, insonning taqdiri qay biri jihati bilan so‘zga bog‘liqligi, hatto uning kelajagi so‘zlayotgan so‘ziga ko‘rinmas bir rishta bilan bog‘lanib turishi asar qahramonlari tilidan bot-bot eslatib turiladi. So‘z– urug‘, u aynan joyini topib qadalsa, albatta, unib chiqadi, xuddi nabotot, hayvonot olamidagi kabi so‘z ham har lahza o‘sib boradi, ammo nimani o‘stirish insonning o‘z ixtiyorida, o‘z qo‘lida. Yaxshi so‘z insonga ozuqa beradi, uni cho‘qqiga chiqa olishi ham mumkin. «Son-sanoqsiz faqru fano oshiqdari yashab o‘tishdi. Biroq ularning ko‘pchiligi o‘zlari orzu qilgan martabalarini ko‘rmadilar. Chunki zikr, muroqaba yoki munoqashadan ham ulug‘roq bir martaba borligidan bexabar qolishdi. Shuni bilib oling: zikr va muroqaba, biror musulmonga yaxshilik baxsh etuvchi xizmat bo‘lmagan paytdagina bajariladi. Insonning ko‘nglini charog‘on etishga sabab bo‘ladigan xizmat, zikr va muroqabadan ancha oldin keladi». Fazlulloh Abulays tomonidan aytilayotgan bu hikmat Xo‘ja Ahror valiyga tegishliligi aytilgach, valiyning g‘oyat ibratli, mavzuga aloqador e’tirofi keltiriladi: «...bu haqiqatlarni tasavvuf kitoblaridan bilib olganim yo‘q, xalqqa xizmat qilib o‘rgandim». Bu iqrorda insoniylikning eng avvalgi shart va vazifasi o‘z aksini topgan, ya’ni « bir ko‘ngilni obod qilish vayron bo‘lgan ka'bani tiklash bilan teng». Hazrat Navoiy falsafasining javhari ham aynan ana shudir. Inson hayotining birdan-bir ma'nosi – o‘zining o‘lmas mohiyatini takomillashtirishdan iborat. O‘limning muqarrarligi bois, faoliyatining boshqa har qanday shakllari, mohiyatiga ko‘ra mazmunga ega emas. Olim odam, obid odamdan afzal. Chunki Alloh odamni , umuman butun koinot, borliqni doimiy o‘zgarishda, rivojlanishda yaratgan. Har neki mavjud taraqqiy etmas ekan, tanazzulga yuz tutishi muqarrar. Inson Haqni anglash barobarida o‘zini isloh qilib boradi, yanada aniqrog‘i, bandaning komillik darajasi, maqomi Yaratganni qanchalik chuqur idrok etishiga bog‘liq. Allohning sifatlari sanalganda uning kuch-qudrat sohibi ekanligidan avval olimligi, har narsani biluvchiligi madh etiladi, chunki Aql bebaho ne‘mat, uning qadr, qiymatini o‘lchash mumkin emas va aql, tafakkurni boshqa bir ne‘mat bilan taqqoslab bo‘lmaydi.

Adabiyotning vazifasi insonshunoslik, insonni o‘rganishdangina iborat emas, balki uning tabiatini yanada taraqqiy toptirish, ma'naviy-ruhiy jihatdan yuksaltirish, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Ruhiyatni balandlikka ko‘taruvchi, bandaning axloqi, fitrati, tiynatini poklashga yo‘naltirilgan g‘oyalarga ergashtirish, shu aqidalarga insonlarni ishontirish orqali, sog‘lom fikrli kishilar bilan jamiyatni taraqqiy toptirish, xalq hayotini farovon qilish mumkin. Bu tarixiy haqiqat, boshqacha yo‘l yo‘qki, bunga ham o‘tmishning o‘zi guvoh. Romanda ana shu aksioma o‘z isbotini topgan va asarning

yutug‘i ham shunda. Yozuvchi bu asarni boshlashdan oldin qizg‘in tayyorgarlik ko‘rgan, mavzuga aloqador tarixiy, jug‘rofiy, biografik, ilmiy fakt va materiallarni to‘plagan, ular bilan tanishib chiqqan va saralab olinganlarinigina romanda kerakli o‘rinlarda qo‘llagan. Ma'lumki, asar uchun eng muhim xususiyatlaridan biri qiziqarlilik. «Alisher Navoiy» romanidagi voqealar tizimi kitobxonni o‘rta asr ko‘chalariga boshlab ketadi, uni qahramonga hamroh qila oladi. Ayni ana shu holat, avvalo, yozuvchining o‘zi shu asarni yashaganligini ko‘rsatadi. Bu esa har qanday tarixiy asarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi birinchi, eng muhim, omil hisoblanadi. Asar muqaddimasidayoq berilgan bahor tasviri o‘qiguchini Hirot yaqinidagi Hirirud daryosi bo‘ylariga, tirik tabiat bag‘riga etaklaydi: «Ulug‘ changlanish jarayoni shunday yuz bergach, har biri o‘zining gullarini ochib yuboradi. Tikan ko‘k tig‘iz gul ochib, Tangriga hamdu sano aytadi. Ajriq ko‘kish, taram-taram shokila bo‘lib gullaydi. Kurmak uzun bosh chiqaradi. Momoqaymoq ukparini sochadi. Pechakday bezori ham chirmovug‘ini uzunasiga tashlab, har bo‘g‘imida bittadan oq-sariq dastorli maddoh paydo qilib qo‘yadi. Beda esa unday maddohlarni g‘ujlab tizadi. Bularning bari ifor taratadi, u ifor ham chechak ibodatidir. U onda giyoh o‘zining umridan, mavjudligidan rozi bo‘ladi, shu damlarga etgani uchun yaratganga maqtoqlar aytadi, hayratlaru zavqlarni ko‘rsatgani uchun «Axir, mavjud emas edim-ku? Meni bor aylading, yaratganingga shukr» deydi.

Umr qanday ajoyib, hayot qanchalar shodmon!

Ular qanchalar zo‘r shavq ichida ekanligini birov bilsaydi!»

Ana shunday baland pardalarda boshlangan so‘zlar simfoniyasidagi tabiat tasviri ramzida bola Alisherning ruhoniyligi, taqdiri, go‘zal, mo‘‘jizakor g‘azallari, dostonlari jonlanib, o‘zgacha bir kayfiyat paydo qiladi. Alisherning bolalik, ilk tahsil davri, Astrobod tasvirida ham xuddi shunday boshqa biror bir nosir uslubida uchramaydigan yangicha bir ifoda shakllariga duch kelamiz.

Asarda u yoki bu munosabat bilan Navoiy asarlariga murojaat qilinganligini turlicha izohlash mumkinki, bu endi alohida masala, qolaversa, bir maqola doirasida buni yoritish imkonsiz.

Romanda tasavvuf, uning asl mohiyati, sufiy so‘zining etimologiyasi, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Junayd kabi avliyo zotlarning hikmatlariga berilgan sharhlar va ularning asarda kechayotgan voqelik bilan tutashtirilishi Navoiy siymosini yanada nurlantirgan, qabariq shishi-linza quyosh nurini bir nuqtaga yig‘ib, alangaga aylatirgani kabi asar g‘oyasiga kuchli pafos bag‘ishlagan.

Ma'lumki, Navoiy va Jomiy shaxsiyatidagi mushtaraklik, darddoshlik, e'tiqodda sobitlik, maslakdoshlik, olam va odamga munosabat bevosita Naqshbandiya tariqati bilan bog‘liq. Bu ikki muborak zotning hayoti, ijodini bu ta'limotdan ayri tasavvur qilish mumkin emas. Negaki, ularning har ikkisi hayotning mohiyati, inson umrining mazmun-mundarijasini, o‘zni, o‘zlikni tanish falsafalari mazkur tariqat bilan uzviy

bog‘liq. Jomiyning pir, ustoz, do‘st sifatidagi maqomi, Navoiyning bu zotga bo‘lgan cheksiz ehtiromi romanda tadrijiy bir yo‘sinda tasvirlangan, bu yo‘l bilan vaziyat va inson psixologiyasi tekshirilgan.

Asarda psixologik tasvirga e‘tibor berilishi qahramonlar ichki olamidagi ziddiyatlar, inson «men»i bilan bog‘liq qarama-qarshiliklarni ochishda yanada bo‘rtib ko‘rinadi.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin ming ganj ila.

Bu mashhur baytning aniq bir tarixiy shaxsga qarata aytilganligini ko‘pchilik bilmasligi aniq. Shoirning ustoz AbuAbdulloh Kulohiyga bag‘ishlangan bu fardning yaratilish tarixi, Navoiyning shu inson-ustoziga sovg‘a –salom bilan birga, o‘sha mahalladan hovli tortiq qilishi kabi lavhalar kitobxonni to‘lqinlantirish bilan birga shoir biografiyasiga doir yangi ma‘lumotlar bilan tanishtiradi.

Romandagi voqealarning o‘sib borishi, ziddiyatlarning kuchayishi, o‘zaro qarama-qarshilikning kengayib, girdob kabi shiddatli tus olishi bosh qahramonning yoshi bilan bog‘liq tarzda kechadi. Tafsilotlar ham shunga muvofiq ravishda ham hajm, ham ruhiy jihatdan kattalashib boradi. Navoiy ulg‘aya boshlagani sari uning qalbida kechayotgan his, tuyg‘u, voqelikka bo‘lgan munosabat tobora chuqurlashib boradiki, bu ham qahramonning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq. Muallif atayin shunday yo‘l tanlaydi, Alisherning bolalik yillarini tasvirlaganda, voqelikning inson qalbidagi aksini asosan tabiat tasviri vositasida chizsa, Navoiyning keying hayotida sodir bo‘layotgan hodisalar oqibatini ikki usulda: ham tabiat, ham shoirning ichki kechinmalari orqali ko‘rsatadi.

Romandagi barcha voqealarni tutashtirib turuvchi yuksak umuminsoniy g‘oya mavjud, bu «Avval-ul-ma‘rifatulloh», ya‘ni ilmning boshi – Allohni tanimoqdir. Ilm olmoq ham ibodatdir, «Gul sayli» faslidagi panjobiy va durroney o‘rtasidagi tortishuvda yoki hindlar haqida so‘z borganda ularning «bir xudolari bor, ming ko‘zli emish», deyilganda ham ilmga bo‘lgan ehtiromni ko‘rish mumkin. Muallif har bir tanlab olingan dramatik lavhada bosh qahramonning o‘zgalarga o‘xshamaydigan jihatlarini ko‘rsatib boraveradi. Yuqordagi masalaga ustoz hindlarni kofirdikda ayblab turganda, Alisher mutlaqo boshqacha munosabat bildiradi. «...xayolida ming ko‘zli, ming qo‘lli bahaybat yaratiqni tasavvur qilib ko‘rdi. Bu holda uning harakatlanishi naqadar qiyin va tegrani ko‘ra olish uchun ikkita ko‘z etarli bo‘lgani holda, ming qo‘lning, ming ko‘zning ham nega kerakligi mantiqsiz edi. Bu so‘z zamirida Tangri eru ko‘klarni, zamin tublarini, qurtu qush, parrandayu darrandalarni, o‘zi yaratgan olamlarning har birini alohida qo‘l ila boshqaradi, degan oddiy tushuncha akslanib turardi...» Ana shunday xayollardan keyin Alisher o‘z mulohazalarini bildiradi: Har holda, ming ko‘zli demak– har narsani ko‘rib turadurg‘on demakdan hosil bo‘lgan chog‘i. Ilmdan bexabar kishi Yaratgan zotni yuzta qo‘li bor, shu sababdan

har ishni bajara olur deya tasavvur qilganmish. Ming ko‘zli yoki qo‘lli demak – o‘zidan ming daraja yuksakdaligini ifoda etadir». Shogirdining bunday zukko va sermulohazaligidan hayratga tushgan muddarris Alisherga «Mantiqut-tayr»ni tortiq etadi. Kitobxon balki Alisherning qo‘liga bu durdona asar qanday kelib qolganligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rmas, chunki vaziyat juda tabiiy gavdalantirilgan.

Yozuvchi Navoiyning nafaqat davlat bilan xalq orasidagi (Astrobod), balki davlatlaro munosabatda tutgan mavqei, tinchlik, osoyishtalikni saqlashdagi ulkan xizmatlari (Hirot, Yodgor; Sheroz, Yoqubbek turkman; Shayboniyxon), el-ulusning ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan to‘kis, farovon yashashi uchun olib borgan sa'y-harakatlari (ulkan bunyodkorlik ishlari: «Ixlosiya», «Xalosiya», «Shifoia» , «Dorul-huffoz»dan tashqari, Marv, Mashhad, Balx, kichik qishloqlar, karvon yo‘llarida qurilgan bino-inshootlar)ni haqqoniy, ishonchli ko‘rsatib bera olgan va shu orqali o‘qiguchini o‘sha vaziyat, voqelikning ishtirokchisiga aylantira olish darajasida uddalagan. Muallif mazkur inshootlarning qurilish sabablarini qahramon dunyoqarashidan kelib chiqib juda chiroyli asoslab ham berganki, bu asarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirgan. «Rabotlar musofir yukini engillatmoq uchun barpo qilingay, chunki musofir duosi qabuldir».

Mamlakat bo‘ylab suv muammo bo‘lib turganligi uchun suvi doimo almashib turadigan hovuzlar qazish, ariqlar ochish, to‘g‘onlar ko‘tarish, ko‘priklar qurish ishlari davom etayotgan tasvirdan keyin yozuvchi Xo‘ja Ahror valiyning: «Zikr va muroqaba, biror musulmonga yaxshilik baxsh etuvchi xizmat bo‘lmagan paytdagina bajariladi. Insonning ko‘nglini charog‘on etishga sabab bo‘ladigan xizmat – zikr va murobaqadan ancha oldin keladi» degan so‘zlarini keltiradi va shu nuqtada Navoiyning islomiy-tasavvufiy qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif izohiga ko‘ra, el koriga yaraydigan buncha inshootlardan keladigan tog‘-tog‘ savoblar bilan zikru muroqabadan keladigan keladigan savob teng bo‘la olarmidi? Insonni benihoya yuksakliklarga ko‘tarib, duo qiluvchi mo‘minlar bo‘lmasa, unday yaxshiliklar, unday savoblar qaerdan ham kelsin? Mo‘min, ezgu qalbli insonlarga xos bir odat bor: Birovning hojatini chiqarsa, nochorligi sabab umid bilan yordam so‘rab kelgan bechoraga ko‘mak berolsa, adolatsizlikka uchrab haqqini talab qilib kelsa, o‘zidan qoniqish, ruhiyatida yorug‘lik, kayfiyatida ko‘tarinkilik his qiladi. Yuqoridagi kabi qalbni quyoshday yorishtiradigan ishlardan keyin Navoiy ham juda xursand bo‘lishi, shunday «mijozi nozik» zotning goh ustalar bilan hazillashishi, goh o‘zi ham ularga qo‘shilib g‘ayrat bilan ter to‘kib ishlashi muallifning shoir ruhoniyatini teran anglay olganligidan dalolat. Navoiy dahosini anglash, uni to‘la ma'noda kashf etish o‘ta mushkul, balki amalga oshirib bo‘lmas vazifa. Har bir odamning o‘zi bir olam ekanligini inobatga olsak, hech qachon bir insonning ruhiy olamini boshqa bir odam butunligicha idrok etolmaydi. Milyonlab qor parchalari biri ikkinchisini takrorlamaydigan, sir-asrorga yo‘g‘rilgan dunyoda birovning qalbini, ruhiyatini to‘la

anglash imkonsiz. Faqat yaxshi umid, toza niyat bilan ayniqsa, Navoiydek zotga intilish mumkin va bu ham taqdirning inoyati, Yaratganning marhamati, zo‘r bir sharafdir.

Siz bilan biz globallashuv, texnokrat, axborot xuruji avjiga chiqqan, insoniyat kun sayin tabiatdan, tabiiylikdan va shuning barobarida o‘zidan, asliyatidan uzoqlashib borayotgan davrda yashayapmiz. Qotillik, xoinlik, birovning haqidan hazar qilmaslik, ikkiyuzlamachilik, xudbinlik, o‘z nafsini yo‘lida har qanday g‘ayrinsoniy ishlardan qaytmaslik, kibr tan olamizmi, yo‘qmi, kun sayin ortib bormoqda. Navoiyni tushunish, Navoiyga qaytish ana shunday zararli illatlarga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan to‘siq, millat uchun darmondori, xasta ruhlarga shifodir. Navoiy bizga o‘zimizni, tomirimizda oqayotgan qonni, milliy ruhimiz, g‘ururimiz, tariximizni tanish uchun kerak. Navoiy kimligimizni esdan chiqarmasligimiz, ertangi farovon, xotirjam, osuda hayotimiz, nurli kelajagimiz uchun zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani “Adabiyot” 2021-yil.
2. Sultonov X. Alisher Navoiy romani so‘zboshisi
3. Rahmonov N. Tarixdan oziqlanib. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 84–87.
5. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
6. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojiviy taqdirleri tasviri. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 1291–1298.
8. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA‘ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.
9. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 301–304.
10. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
11. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 80–83.

12. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
13. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42)).
14. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
15. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
16. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdukarimovna. (2023). Ta‘lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
17. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.
18. <https://www.bbc.com/uzbek/lotin-isajonsulton>
19. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
20. Karimov Bahodir. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yoxud Insoniyat quyoshi ta‘rifida bitilgan roman to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z. Toshkent.: Madaniyat, 2021.